



Maqsud Shayxzoda hayotining yorqin namunasi

Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

Qodirovislomjon316@gmail.com

+998910066778

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi Maqsud Shayxzodaning hayoti yorqin namunalar orqali yoritiladi. Uning bolalik yillari, ilm-fan va adabiyotga muhabbati, siyosiy tazyiqlarga qaramay adolat va haqiqat yo'lidan qayrilmagan hayoti o'rganiladi. Ayniqsa, Shayxzodaning xalq ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirish yo'lidagi fidokorona xizmatlari, jahon adabiyotini o'zbek tiliga tarjima qilishdagi hissassi va milliy uyg'onish ruhidagi asarlari bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqola orqali Shayxzodaning hayoti nafaqat bir adibning taqdiri, balki butun bir avlodning ma'naviy jasorati sifatida talqin etiladi.

Abstract: This article highlights the life of Maqsud Shaikhzoda, a prominent figure in Uzbek literature, through vivid examples. His childhood, love of science and literature, and his life of not turning away from the path of justice and truth despite political oppression are studied. In particular, Shaikhzoda's selfless services to the advancement of national spirituality and enlightenment, his contribution to the translation of world literature into the Uzbek language, and his works in the spirit of national revival are still relevant today. The article interprets Shaikhzoda's life not only as the fate of a writer, but also as the spiritual courage of an entire generation.

Аннотация: В статье на ярких примерах освещается жизнь выдающегося деятеля узбекской литературы Максуда Шайхзода. В книге исследуется его детство, его любовь к науке и литературе, а также его жизнь, в которой он не сошел с пути справедливости и истины, несмотря на политическое давление. В частности, бескорыстные заслуги Шайхзода в развитии национальной духовности и просвещения, его вклад в перевод мировой литературы на узбекский язык, его произведения в духе национального возрождения актуальны и сегодня. В статье жизнь Шейхзаде трактуется не только как судьба писателя, но и как духовное мужество целого поколения.

Kalit soʻzlar: oʻqituvchi, Yozuvchilar uyushmasi, dotsent, surgun, drama, tragediya, tarjimon, kitob, sheʼr, qamalish, tarjima, eʼtirof.

Key words: teacher, Writers' Union, docent, exile, drama, tragedy, translator, book, poem, imprisonment, translation, confession.

Ключевые слова: учитель, Союз писателей, доцент, ссылка, драма, трагедия, переводчик, книга, стихотворение, заключение, перевод, исповедь.

Kirish:

Barchamiz taniydigan hamda asarlarini sevib oʻqiydigan mashhur adiblarimizdan biri Maqsud Shayxzoda 1908- yilning 7-noyabrida Azarbayjon oʻlkasi Oqtosh shahrining Ganja qishlogʻida dunyoga kelgan. Asl ismi Maqsud boʻlib, uning otasini ismi Maqsumbek hamda Shayxzoda uning taxallusidir. Uning ilm olish davrlariga qaraydigan boʻlsak, u ilk bor Bokuda joylashgan Dorilmualliminni tugatgan. Shundan soʻng u bir qancha joylarda ishlaydi, jumladan, birinchi boʻlib Darbanddagi 1-bosqich Azarbayjon maktabida undan keyin esa, Boʻynoqdagi taʼlim va tarbiya texnikumlarida oʻqituvchi sifatida faoliyat yuritadi. Oʻsha davrlarning asosiy maqsadi boʻlmish ilmlilarni yoʻq qilish niyati sababli, u 1927 – yili hibsga olindi hamda oradan koʻp vaqt oʻtmay, yaʼni 1928-yiliyiq Maqsud Shayxzoda Toshkentga surgun qilib yuboriladi.

Oʻsha paytda u Oʻrta Osiyo universitetining Sharq fakultetida qisqa vaqt ichida oʻqiydi, hamda shundan keyin bu bir qancha jurnal va gazetalarda ishlay boshlaydi.

Asosiy qism:

Maqsud Shayxzodaning dastlabki sheʼriy toʻplami „Loyiq soqchi“ nomi bilan 1933- yilda nashrdan chiqadi. Shundan soʻng ham uning bir qancha sheʼriy toʻplamlari nashrdan chiqqan boʻlib ular quyidagilardir: „Oʻn sheʼr“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „Oʻn ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qoʻshiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qoʻshiq“, „Koʻngil deydiki...“ (1943), „Oʻn besh yilning daftari“ (1947), „Yurt sheʼrlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yoʻllar“ (1961), „Sheʼrlar“ (1964). Shoir oʻzining sheʼrlarida atrofida roʻy berayotgan hodisalar ha juda ahamiyat bergan holda, shu hodisalarni oʻzining sheʼrlarida gavdalandirishga harakat qiladi. Va u ularda asosan vatan va xalq hayotida roʻy berayotgan voqealarga hamda mehnatkash va qadrli xalqning obrazlarini shakllantirgan. Shundan soʻng u yuqorida taʼkidlab oʻtilgan obrazlarni yanada yaxshiroq shakllantirish uchun dostonlar ham yozishga qoʻl urafi. Hamda uning



„O‘rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O‘rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O‘n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o‘g‘il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlari o‘quvchilar yuzini ko‘radi. Bundan tashqari adibning poytaxtimiz Toshkent hayotiga bag‘shlangan „Toshkentnoma“ asari ham o‘ziga yarasha mashhurlik va qadr-qimmatiga egadir. Maqsud Shayxzoda tragediya janrida ham qalam tebratgan yozuvchilardan hisoblanib ikkinchi jahon urushi yillarida u Xorazmning ozodligi, erki hamda vatan oldidagi burchi bo‘lmish uni himoya qilish vazifasini o‘tagan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdiga atalgan yorqin asar: „Jaloliddin Manguberdi“ tragediyasini va bundan tashqari o‘zining otasini qotili sifatida tanilib, molu-mulkka bo‘lgan xirs uni oxir oqibat uni otasini o‘ldirish darajasigacha olib kelgan Abdulatif hamda Amir Temurdan qolgan yagona davlatni shunday avlodiga qoldirayotganidan afsuslangan va oxirida o‘z farzandi tomonida suyuqasd qilib o‘ldirilgan ota obrazi bo‘lmish Mirzo Ulug‘bekning siymosi gavdalanitirilgan „Maqsud Shayxzoda“ tragediyalari ham mavjud. 1941yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e‘lon qilgan Sh. Umrining sunggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug‘ullanib keldi. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirikasining ba’zi bir poetik usullari haqida“ (1959), „Ustodning san’atxonasida“ (3 qismli maqola, 1965—66), „G‘azal mulkning sultoni“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Maqsud Shayxzoda nafaqat dramaturg, shoir, adabiyotshunos, pedagogdir shuningdek u tarjimonidir ham. U tarjimonlik sifatida ham bir qator ishlarni amalga oshirgan hamda u tarjima qilgan asarlarni biz bugungi kunda sevib o‘qib kelmoqdamiz. Jumladan u Sh. Rustavelining „Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U. Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she‘rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she‘rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy,

Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilgan. Adib 1952- yilda xibsga olinadi va 25 yil qamoq jazosi beriladi hamda 1954-yil ozod etiladi. Adib 1967- yil og‘ir xastalikka chalinadi hamda o‘sha yilning 19-fevral sanasida dunyodan o‘tadi.



Xulosa:

Adbiyot tarixida o‘chmas iz qoldirish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi, ayniqsa u boshqa bir davlatda tug‘ilib, boshqa bir davlatning adabiyotida bo‘lsa. Shunday o‘chmas iz qoldirgan adiblarimizdan biri bo‘lmish Maqsud Shayxzodaning hayoti yo‘li har bir yosh kelajak avlod uchun faxrlanarli namuna desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Shunday ekan uning hayoti va ijodini o‘rganish hamda u kabi bo‘lishga harakat qilish bu juda katta mahoratni talab etadi. Qisqa qilib aytganda daraxt o‘rib , toki meva tukkunga qadar o‘ziga keladigan har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishi lozim, aks holda bir bahorni ham ko‘rolmagan holda yozning issig‘i yoki qishning qahraton sovug‘idan nobud bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
2. Shayxzoda Maksud. Atokli xalg shairi. „Lenin uchkuni“, 1956, 18 may (o‘zbekcha)
3. Shayxzoda Maksud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o‘zbekcha)
4. Yusuf Shomansur, Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972;
5. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975;
6. Zokirov M., Maqsud Shayxzoda. Adabiytanqidiy ocherk, T., 1969;
7. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983;
8. Google internet tarmog‘i. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Shayxzoda>